



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlakat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131





**MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA IJTIMOIIY SOHA TASHKILOTLARI
FAOLIYATINING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Mahmudov Fayzulla Murodullayevich

*mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: 3183935@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining o'zini hamda ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, institutsional omillar va resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi. Hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar aniqlanib, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali mintqa iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari asoslab berildi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi.

Kalit so'zlar: mintqa iqtisodiyoti, ijtimoiy soha, ijtimoiy xizmatlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy rivojlanish, boshqaruv samaradorligi, institutsional rivojlanish, iqtisodiy o'sish.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ ОРГАНИЗАЦИЙ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА В
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНА**

Махмудов Файзулла Муродуллаевич

*независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: 3183935@gmail.com*

Аннотация. В статье исследуется роль организаций социальной сферы в развитии региональной экономики, а также вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов повышения эффективности их деятельности. Рассмотрены современные подходы к управлению организациями социальной сферы, институциональные факторы и эффективность использования ресурсов. Определены ключевые показатели, влияющие на региональный экономический рост, и обоснованы направления обеспечения устойчивого развития региональной экономики посредством совершенствования системы социальных услуг. В результате исследования предложен комплексный организационно-экономический механизм повышения эффективности деятельности организаций социальной сферы.

Ключевые слова: региональная экономика, социальная сфера, социальные услуги, организационно-экономический механизм, региональное развитие, эффективность управления, институциональное развитие, экономический рост.

**IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF
SOCIAL SECTOR ORGANIZATIONS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE
REGION**

Mahmudov Fayzulla Murodullayevich

*Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: 3183935@gmail.com*





Abstract. *This article examines the role of social sector organizations in regional economic development and explores ways to improve organizational and economic mechanisms aimed at increasing their operational efficiency. The study analyzes modern management approaches, institutional factors, and resource utilization efficiency within social sector organizations. Key indicators influencing regional economic growth are identified, and strategic directions for ensuring sustainable regional development through the improvement of social service systems are substantiated. As a result, a comprehensive organizational and economic mechanism for enhancing the performance of social sector organizations is proposed.*

Keywords: *regional economy, social sector, social services, organizational and economic mechanism, regional development, management efficiency, institutional development, economic growth.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mintaqalar iqtisodiy o'sishini ta'minlash nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlari, balki ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligi bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Ijtimoiy soha tashkilotlari - ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy xizmatlar va aholini qo'llab-quvvatlash tizimlari - inson kapitalini shakllantirish orqali hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi mintaqada iqtisodiy raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari sharoitida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini boshqarishning an'anaviy usullari hududiy rivojlanish talablariga to'liq javob bermay qolmoqda. Resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifati va ularning aholiga yetkazilish darajasini oshirish, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish zarurati kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirishni talab etadi. So'nggi yillarda mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalarida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Biroq amaliyotda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari, boshqaruv mexanizmlarining integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy rag'batlantirish tizimlari yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatiladi. Natijada mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi past darajada qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy soha tashkilotlarining o'rni iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy qarashlarga ko'ra, hududlarning barqaror rivojlanishi inson kapitali sifati, ijtimoiy infratuzilma darajasi hamda ijtimoiy xizmatlar samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson kapitali nazariyasining asoschilari hisoblangan T. Schultz va G. Becker tadqiqotlarida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida asoslab berilgan [1]. Ushbu yondashuv keyinchalik mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarida ijtimoiy soha rivojlanishini iqtisodiy samaradorlik bilan bog'lashga metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasida M. Porter hududlarning raqobatbardoshligi infratuzilma, institutsional muhit va xizmatlar sektorining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanishini ta'kidlaydi [2]. Olimning fikriga ko'ra, ijtimoiy institutlarning samarali faoliyati hududiy klasterlar shakllanishi va iqtisodiy faollik oshishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy soha tashkilotlarini boshqarish samaradorligi masalalari P. Drucker tomonidan keng yoritilib, notijorat va ijtimoiy tashkilotlarda natijadorlikni oshirish uchun strategik boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish muhimligi qayd etilgan [3]. Bu yondashuv ijtimoiy xizmatlar sektorida tashkiliy mexanizmlarni modernizatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Zamonaviy





tadqiqotlarda ijtimoiy xizmatlar tizimining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan ham tahlil qilinadi. D. North institutsional muhitning samaradorligi iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir qilishini asoslab, tashkilotlar faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [4]. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlarida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi hududiy tengsizlikni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi [5]. Ushbu tadqiqotlar ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini tasdiqlaydi. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini iqtisodiy boshqaruv mexanizmlari asosida rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Xususan, Abalkin ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda davlat va ijtimoiy institutlar hamkorligi muhimligini ta'kidlaydi [6]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida esa hududiy rivojlanishda xizmatlar sohasi va ijtimoiy infratuzilmaning roli alohida yoritilgan. Jumladan, A. Vahobov va Sh. Xajibakiyevlar tomonidan mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligi ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan [7]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks tarzda, ayniqsa hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan integratsiyalashgan holda baholash yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda institutsional yondashuv usullari qo'llanildi. Ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar, hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari hamda ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar va ijtimoiy xizmatlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar asosida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning konseptual modeli ishlab chiqildi hamda ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Hududlar o'rtasida investitsiya, bandlik va yashash darajasidagi o'zgarishlarni dinamik model asosida o'rganish mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini tizimli va vaqt bo'yicha ketma-ketlikda tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning mohiyati shundaki, u iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liq omillar majmui sifatida baholab, ularning dinamik rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Dinamik model statik usullardan farqli ravishda nafaqat joriy holatni aks ettiradi, balki kelgusidagi rivojlanish trayektoriyalarini prognozlash imkonini ham yaratadi. Mazkur modelda investitsiyalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, yangi ish o'rinlari yaratish darajasi hamda aholi turmush darajasining o'zgarishi o'zaro bog'liq omillar sifatida qaraladi. Shu asosda investitsiya oqimlarining bandlikka va yashash darajasiga qisqa hamda uzoq muddatli ta'siri aniqlanadi, hududlararo resurs taqsimoti samaradorligi baholanadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning optimal variantlari ishlab chiqiladi. Dinamik modelning amaliy ahamiyati shundaki, u mintaqaviy siyosat ishlab chiquvchilarga ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Jumladan, qaysi hududlarga investitsiya yo'naltirish orqali bandlikni oshirish yoki aholining turmush darajasini yaxshilash mumkinligi oldindan aniqlanadi. Shuningdek, mazkur model yordamida iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda hududlararo tengsizlik darajasining kamayishi yoki ortishi ham baholanadi. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar ko'pincha resurslarning notekis taqsimlanishi, migratsiya jarayonlari, ishlab chiqarish klasterlarining rivojlanish darajasi va infratuzilma bilan ta'minlanganlik kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. Dinamik model aynan ushbu omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ularning





kelgusidagi oqibatlarini prognoz qilish va hududlararo muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, mamlakatda barqaror va muvozanatli rivojlanishni ta'minlashda bunday modellashdirish yondashuvi muhim ilmiy-uslubiy asos hisoblanadi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi hududlar o'rtasida investitsiya oqimlari, bandlik darajasi va yashash sharoitlaridagi o'zgarishlarni kompleks prognozlash hamda optimal boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda investitsiya va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan mexanizmlarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Investitsiya faolligi, bandlik ko'rsatkichlari hamda aholi turmush darajasi makroiqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy indikatorlar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zgarishini zamonaviy ekonometrik modellar asosida tahlil qilish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirish, resurslarni samarali taqsimlash va rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Tahlillarga ko'ra, 2022-yilning I yarim yilligida Qashqadaryo viloyatiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7 373,3 mlrd so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 5,7 foizga oshgan. Mazkur ijobiy dinamika viloyatda investitsion faollikning ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq investitsiya oqimlarining hududlar kesimida taqsimoti tahlili ularning notekis joylashganligini ko'rsatadi. Xususan, jami investitsiyalarning qariyb 70 foizi viloyatning to'rtta hududida jamlangan bo'lib, ulardan G'uzor tumani 22,2 foiz, Qarshi shahri 18,4 foiz, Muborak tumani 16,4 foiz va Kitob tumani 13 foiz ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Ushbu holat investitsiya resurslarining hududlar bo'yicha noteng taqsimlanayotganligini ko'rsatib, boshqa hududlarda iqtisodiy faollikning nisbatan past darajada ekanligini anglatadi. Mazkur nomutanosiblik o'z navbatida bandlik darajasi va aholi turmush sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya oqimlari yuqori bo'lgan hududlarda yangi ish o'rinlari yaratilishi va daromadlarning oshishi kuzatilsa, investitsiya yetarli darajada jalb etilmagan hududlarda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari pastroq bo'lishi mumkin. Shu bois, investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatlashtirish, ularni ijtimoiy soha tashkilotlari rivoji bilan uyg'unlashtirish hamda bandlikni oshirishga yo'naltirish zarur. 2020–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida investitsiya oqimlari hududlar kesimida notekis shakllangan. Ayrim tumanlarda (Mirishkor, G'uzor, Qarshi shahri) yuqori o'sish kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarda investitsiya hajmining kamayishi iqtisodiy rivojlanishdagi hududlararo tafovutlarni kuchaytirgan. 1-jadval

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati tumanlari bo'yicha investitsiya tendensiyalari (2020–2025 yy.)²¹

Tuman	2020–2025 tendensiya	Izoh
Mirishkor	5,5–6 baravar o'sish	Energetika va yirik sanoat loyihalari hisobiga
Kitob	2–2,5 baravar o'sish	Turizm va xizmatlar sohasi rivojlanishi
Koson	1,8–2 baravar o'sish	Qishloq xo'jaligi va kichik biznes kengayishi
Qamashi	1,5–1,7 baravar o'sish	Hududiy infratuzilma va investitsiya loyihalari
Qarshi sh.	2,5–3 baravar o'sish	Ma'muriy markaz sifatida investitsiya jalb qilishi
G'uzor	3–3,5 baravar o'sish	Transport-logistika va sanoat zonalari rivoji
Muborak	–60% dan –70% gacha kamayish	Energetika loyihalarining qisqarishi va beqarorlik
Dehqonobod	–75% dan –85% gacha kamayish	Investitsiya jalb qilish darajasi past
Yakkabog'	–70% dan –80% gacha kamayish	Infratuzilma cheklanganligi
Shahrisabz	–30% dan –40% gacha kamayish	Turizm salohiyati to'liq ishga solinmagan

²¹ Muallif ishlanmasi




1-jadvalda 2020–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida investitsiya oqimlarining dinamikasi tahlil qilinib, hududlararo rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Tahlil natijalari investitsiya faolligining hududlar kesimida sezilarli darajada differensiyalashganligini ko'rsatadi. Birinchi guruh — yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (Mirishkor, G'uzor, Qarshi shahri, Kitob) hisoblanadi. Ushbu hududlarda investitsiya hajmining keskin oshishi, avvalo, yirik sanoat va energetika loyihalarining amalga oshirilishi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi hamda investitsion jozibadorlikning yuqoriligi bilan izohlanadi. Xususan, Mirishkor tumanida investitsiya hajmining 5–6 baravar oshishi hududda amalga oshirilgan yirik ishlab chiqarish va energetika loyihalarining samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qarshi shahri esa ma'muriy va iqtisodiy markaz sifatida investitsiya oqimlarining asosiy qismi jamlanadigan hudud sifatida ajralib turadi. Ikkinchi guruh — o'rtacha o'sish sur'atiga ega hududlar (Koson, Qamashi) bo'lib, bu hududlarda investitsiya hajmining barqaror, ammo nisbatan pastroq o'sishi kuzatiladi. Mazkur holat ushbu hududlarda asosan qishloq xo'jaligi, kichik biznes va xizmatlar sohasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, yirik investitsiya loyihalarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Uchinchi guruh — investitsiya kamayishi kuzatilgan hududlar (Dehqonobod, Yakkabog', Muborak, Shahrisabz) hisoblanadi. Ushbu hududlarda investitsiya hajmining keskin qisqarishi infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, investorlar uchun jozibador muhitning shakllanmaganligi hamda iqtisodiy faoliyatning nisbatan pastligi bilan bog'liq. Ayniqsa, Dehqonobod va Yakkabog' tumanlarida investitsiya hajmining 70–80 foizgacha kamayishi hududiy rivojlanishdagi muammolarning mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur differensiyalashuv hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Investitsiya oqimlari yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi oshib, aholi daromadlari ortayotgan bo'lsa, investitsiya yetishmayotgan hududlarda iqtisodiy faollik past darajada qolmoqda. Bu esa ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatlashtirish, kam rivojlangan hududlarga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy siyosatni differensial yondashuv asosida shakllantirish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, dinamik modellashirish asosida investitsiya, bandlik va yashash darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali hududiy rivojlanishni samarali boshqarish imkoniyati kengayadi. Hududlar o'rtasidagi differensiyalashuv nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki ijtimoiy soha rivojlanish darajasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Investitsiya oqimlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi natijasida ayrim tumanlarda bandlik darajasi, aholi daromadlari va ijtimoiy xizmatlar sifati yuqori sur'atlarda o'sayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkichlar nisbatan past darajada shakllanmoqda. Xususan, investitsiya faolligi yuqori bo'lgan hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va xizmatlar sektorini kengaytirish imkoniyatlari ortib, bu aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Aksincha, investitsiya yetarli darajada jalb etilmagan hududlarda ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligi past bo'lib, bu bandlik muammolari, xizmatlar sifati pastligi va ijtimoiy tengsizliklarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyati muhim institutsional omil hisoblanishini ko'rsatdi. Ijtimoiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish darajasining oshishi inson kapitalining rivojlanishiga, bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga hamda hududlarning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatida mavjud boshqaruv tizimi, moliyalashtirish mexanizmlari va resurslardan foydalanish samaradorligi hududiy rivojlanish talablariga to'liq mos kelmaydi. Natijada xizmatlar sifati va iqtisodiy natijadorlik o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Shu bois ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida takomillashtirish zarur hisoblanadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirishning ustuvor





yoʻnalishlari asoslab berildi. Jumladan, boshqaruv jarayonlarini institutsional takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli boshqaruv elementlarini joriy etish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish muhim omillar sifatida aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini baholashning kompleks yondashuvini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishga xizmat qilishi asoslandi. Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatini modernizatsiya qilish orqali mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishini taʼminlash mumkinligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 1971.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
3. Drucker P.F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1985.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. World Bank. World Development Report: Human Development and Social Infrastructure. – Washington DC, 2020.
6. Абалкин Л.И. Социально-ориентированная рыночная экономика. – Москва: Экономика, 2002.
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

